



AHOLI BANDLIGI VA DAROMADINI OSHIRISH BO‘YICHA ISHLAR TANQIDIY TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-sentabr kuni hududlarda aholi bandligi va daromadini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazdi.

Ma'lumki, 3-sentabr kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgan edi. Unda hududlarda ishni tashkil etish tartibi tubdan o‘zgartirilib, asosiy vakolat va resurslarni tuman darajasiga tushirish belgilandi.

Yangi tizimga muvofiq, har bir viloyat va tumanda hokim boshchiligidagi shtablar tashkil etilib, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleks tashkilotlari odamlarni ish bilan ta'minlash va daromadini oshirish masalalarini joyning o'zida hal qilishi lozim.

Bugungi yig‘ilishda ana shu vazifalar ijrosi, shtablar faoliyati va joylarda mavjud imkoniyatlardan foydalanish holati tanqidiy ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, barcha hududlarda shtablar ish boshladi. Ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun iqtisodiy kompleksdan har bir viloyatga 2 nafardan, jami 28 nafar mas‘ul rahbar biriktirildi. Ishohotlar shtabi, vazirliklar, banklar va mahalliy hokimliklar yangi tizim asosida ishni boshlagan.

Shu bilan birga, ayrim rahbarlar hali ham ishni kabinetdan turib tashkil etayotgani, mahallaga tushib, har bir oila va har bir korxonadagi haqiqiy holatni o‘rganmayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Davlatimiz rahbari bunday yondashuv bilan natijaga erishib bo‘lmasiligini ta’kidladi.

Hokimlar kambag‘allik masalasiga faqat ijtimoiy reyestr nuqtayi nazaridan qaramasligi zarurligi qayd etildi. Ijtimoiy reyestr aholini qo‘llab-quvvatlash vositasi, kambag‘allikni qisqartirish esa oilani barqaror daromad manbaiga bog‘lash, ish o‘rni, infratuzilma hamda sharoit yaratish bilan bog‘liq kompleks vazifadir.

Yig‘ilishda har bir tumanda tayyor imkoniyatlarni ishga solish orqali bandlikni oshirish mumkinligi aniq misollar asosida ko‘rsatib o‘tiladi.

Jumladan, Qo‘shko‘pir tumanida 43 million yevroga qurilgan, 1 ming 300 ta ish o‘rniga mo‘ljallangan to‘qimachilik korxonasi yil boshidan buyon ishlamay turgani tanqid qilindi. Korxona faoliyati tiklansa, bank tomonidan krizis-menejer jalb etilib, u to‘liq quvvatga chiqarilishi mumkin.

Shu kabi 124 ta korxonaning 6 trillion so‘mlik aktivlariga qo‘yilgan cheklavlarni qayta ko‘rib chiqish va ularni bank boshqaruviga berish orqali 10 ming ish o‘rnini tiklash imkoniyati borligi qayd etildi.

Oqoltin tumanidagi “Oqoltin mega tekstil” korxonasi misolida ham banklar balansiga o‘tgan tayyor obyektlarni qismlarga bo‘lib sotish o‘rniga ularni qayta ishga tushirish orqali yuzlab odamlarni band qilish mumkinligi ko‘rsatildi.

Umuman, davlat banklari balansida 10 trillion so‘mlik 2,5 mingga yaqin mol-mulk mavjud. Ularni samarali ishga solish orqali 40 mingtagacha ish o‘rni tiklanishi mumkin.

Mutasaddilarga bir hafta muddatda qarzdorlik hisobiga banklar balansiga o‘tgan korxonalarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish, yil yakuniga qadar ularni yaxlit ishlab chiqarish sifatida sotish yoki menejer tayinlab, faoliyatini tiklash choralarni ko‘rish topshirildi.

Qishloq joylarida ehtiyojmand oila a‘zosini ishga olgan korxonalar uchun 1-oktabrdan ushbu xodim bo‘yicha ijtimoiy soliq stavkasi 2 foiz bo‘lishi belgilandi.

Yig‘ilishda xususiy sektor imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ham e‘tibor qaratildi. Oqoltin tumanida tadbirkor tomonidan 880 o‘rinli xususiy maktab tashkil etilib, ehtiyojmand oilalarning 110 nafar farzandi bepul o‘qitilayotgani ijobiy misol sifatida keltirildi.

Ushbu tashabbusning muhim sharti shundaki, bepul ta’lim olayotgan bolaning ota-onasi ishga joylashishi, farzandining muntazam darsga qatnashini ta’minlashi kerak. Natijada ota-ona ishli bo‘ladi, farzand esa sifatli ta’lim oladi.

Hazorasp tumanidagi tikuvchilik korxonasida 400 ta bo‘sh ish o‘rni borligi, biroq bola parvarishi bilan bog‘liq sharoit yetarli emasligi sababli ko‘plab ayollar ishga chiqa olmayotgani qayd etildi. Korxona rahbari bog‘cha tashkil etish uchun yer ajratilsa, ayollar uchun ovqatlanish va transport sharoiti yaratishga tayyorligini bildirgan.

Shu munosabat bilan tadbirkorlar bog‘cha, maktab va texnikum tashkil etish bo‘yicha tayyor loyihalar taklifi bilan chiqib, ehtiyojmand oila farzandlarini bepul o‘qitmoqchi bo‘lsa, davlat yer uchastkalarini 1 million so‘m boshlang‘ich narx bilan auksionga chiqarishga tayyor ekani ta’kidlandi.

Aholi bandligini oshirishda servis sohasining imkoniyatlari ham muhokama qilindi. Ko‘p qavatli uylarning birinchi qavatida sataroshxona, go‘zallik saloni, kichik do‘kon, atelye, poyabzal va maishiy texnika ustaxonasi kabi odamlarga qulay xizmat turlarini tashkil etish mumkin. Biroq amalda xonadonni noturar joyga o‘tkazish uchun ortiqcha tartiblar va ruxsatlar talab etiladi.

Shu bois, ko‘p kvartirali uylarning birinchi qavatidagi xonadonlarni noturar joy toifasiga o‘tkazmasdan, savdo va servis faoliyatiga moslashtirishga ruxsat berish taklif etildi. Bunda xabarдор qilishning o‘zi yetarli bo‘ladi.

Mutasaddilarga bir oy muddatda bunday xonadonlarda tashkil etilishi mumkin bo‘lgan xizmat turlari ro‘yxati va xavfsizlik talablarini ishlab chiqish topshirildi.

Yig‘ilishda tuman va mahalla darajasida ishni tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar ham belgilab berildi. Avvalo, har bir hududda to‘liq ishlatilmayotgan yoki bo‘sh turgan bino-inshootlar, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni kengaytirish mumkin bo‘lgan yer maydonlarini

aniqlab, ularni yangi loyihalarga bog‘lash zarurligi ta’kidlandi.

Tuman va mahallalarning gavjum ko‘chalarida master-rejalar asosida tadbirkorlik loyihalarini joylashtirish, tarixiy shaharlar va turizm mahallalarida ko‘chalarni “eski shahar” uslubida ta’mirlab, mehmon uylari, savdo va servis shoxobchalarini ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi.

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida eski bog‘lar va qarovsiz yerlarni yangilash, har bir gektardan olinadigan daromadni oshirish muhimligi qayd etildi. Bu orqali yerdan samarali foydalanish, hosildorlikni ko‘paytirish va qishloq aholisi uchun qo‘shimcha manba yaratish mumkin.

Ko‘p qavatli uylar atrofidagi bo‘sh joylarni aniqlab, o‘zboshimchalik bilan egallangan hududlarni tartibga keltirish, umumiy foydalanishdagi bolalar maydonchalari, sport va fitness hududlari, yashil maydonlar tashkil etish hamda ko‘chalarni yoritish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Aholini sog‘lom turmush tarziga jalb etish, mahalla va ko‘chalarda ommaviy yurish, jismoniy mashqlar, ertalabki va kechki badantarbiya mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish muhimligi qayd etildi.

Maktab, texnikum, oliyog‘oh va boshqa tashkilot binolarining bo‘sh xonalarida, asosiy xonalarning darsdan tashqari vaqtlarida yoshlar, ayollar va ishsiz fuqarolarni kasb-hunar hamda tillarga o‘qitish muhitini yaratish vazifasi belgilandi.


Har bir mahallada jamoatchilik ishlariga befarq bo‘lmagan faol fuqarolar va oqsqoqlar borligi, ularni mahalla atrofida jipslashtirish orqali odamlarni ezu tashabbuslarga jalb etish, boqimandlik va befarqlikka barham berish mumkinligi ta’kidlandi.

Yaqinda imzolangan Prezident farmoni asosida mahalla tizimi bilan ishlash bo‘yicha Bosh vazir o‘rinbosari lavozimi joriy etildi. Unga tayinlangan mas‘ul rahbar oldiga hokimlar, tuman idoralari, “mahalla yettligi” va banklar faoliyatini yagona tizimda muvofiqlashtirish, ular yuritayotgan elektron platformalarni birlashtirish vazifasi qo‘yildi.

Bundan buyon mahallaga tegishli masalalar bo‘yicha “yettilik”ni muvofiqlashtiruvchi rahbarlar tomonidan alohida-alohida yig‘ilishlar o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Barcha masalalar haftada bir marta Bosh vazir o‘rinbosari boshchiligidagi hamma rahbarlar ishtirokida muhokama qilinadi.

Mamlakatimiz yetakchisi mahallada ishni to‘g‘ri tashkil etish, davlat siyosatini eng quyi bo‘g‘ingacha yetkazish va har bir oilani barqaror daromad manbaiga bog‘lash barcha darajadagi rahbarlar uchun eng muhim vazifa ekanini ta’kidladi.

Yig‘ilishda joylardagi ishohotlar shtabi, hududlar rahbarlari, tuman va shahar hokimlari hamda mutasaddilarning hisobotlari eshitildi.



Uchinchi Rennans bunyodkorlari

PISA TADQIQOTI

nafaqat xalqaro reytingni belgilovchi, balki kelgusi ishlarni tahlil qilishda ham asosiy mezondir

Yangi O‘zbekistonda ta’lim inson kapitalini rivojlantirish, yosh avlodning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda Uchinchi Rennans poydevorini yaratishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o‘qituvchi mehnatining jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o‘rni alohida e’tirof etilib, pedagoglar sha’ni hamda qadr-qimmatini himoya qilish, kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish davlatning ustuvor vazifasi sifatida mustahkamlandi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish ko‘zlangan.

Xalqaro baholashlar dasturlarida munosib natijaga erishish ham ushbu uzoq muddatli siyosatning muhim mezonlaridan biri. Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O‘zbekistonning PISA (The Programme for International Student Assessment) — Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingida dunyoning ilg‘or

30 ta mamlakati qatoriga kirishi maqsad qilib belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, PISA 2025 natijalari nafaqat xalqaro reytingdagi o‘rinni, balki ta’lim tizimida qaysi yo‘nalishlarda siljish yuz berayotgani va qaysi masalalarda ishlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadigan muhim tahliliy mezondir.

O‘ZA

Davomi 3-betda

BELGRADGA TASHRIF O‘ZBEKISTONNING YEVROPA IQTISODIY MAKONI SARI TASHLANGAN YANA BIR MUHIM QADAMI BO‘LDI

Xorijlik ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Serbiyaga ilk rasmiy tashrifi yakunlari haqida fikr bildirmoqda



Joriy yil 7-8-sentabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchichning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzolab, o‘zaro hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

Oliy darajadagi O‘zbekiston — Serbiya sammiti chog‘ida savdo, transport, qishloq xo‘jaligi, qayta tiklanuvchi energetika, farmatsevtika, turizm, madaniyat, raqamlashtirish, mehnat migratsiyasi va boshqa sohalarda salmoqli hujjatlar to‘plami imzolandi.

Rasmiy va ishbilarmon doiralarning 200 dan ortiq vakili ishtirok etgan O‘zbekiston — Serbiya biznes forumi tashrifning muhim qismiga aylandi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston rahbariga Serbiyaning oliy davlat mukofoti — Katta zanjirli Serbiya Respublikasi ordenini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, Belgradagi ko‘chalardan biriga Toshkent nomi berildi. Xorijiy sharlarda qayd etilganidek, bu voqealar tomonlarning ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro anglashuv rishtalarini yanada mustahkamlashga qat‘iy sodiqligining yorqin ramzi bo‘ldi.

O‘zbekiston Prezidentining Serbiyaga tashrifi xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi hamda ekspert va ishbilarmon doiralar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Davomi 2-betda

NURONIYLAR KO‘MAGI BILAN

5000 ga yaqin oila kambag‘allik reyestridan chiqarildi



“Nuroni” jamg‘armasi dastlab faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalari bilan shug‘ullangan. 2016-yildan keksalarning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini tubdan oshirishga qaratilgan amaliy ishlar boshlandi.

Prezidentimizning 2016-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan mamlakatimizda keksa avlod vakillariga e‘tibor va g‘amxo‘rlik mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Farmon bilan “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish, qariyalarni ijtimoiy-siyosiy hayotga keng jalb qilish, ehtiyojmand nuroniylarga amaliy yordam ko‘rsatish, yoshlar tarbiyasida ularning hayotiy tajribasidan foydalanish hamda hududlarda “Nuroniylar maskani” majmualarini tashkil etishga qaratilgan vazifalar belgilandi.

Davomi 3-betda

Yuksalish pallasi

O‘ZBEK SHAXMATI –

tafakkur san’atidagi EZGU EVRILISHLAR

6



E‘zoxon KARIMOVA,
maktabgacha va maktab
ta‘limi vaziri

Boshlanishi 1-betda

2026-yil 8-sentabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda OECD — Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti bilan o‘tkazilgan ta‘lim forumida PISA 2025 natijalari rasman e‘lon qilindi. Forumda O‘zbekiston natijalarining dinamikasi, ta‘limdagi tenglik, o‘quv muhiti, o‘qituvchi ko‘magi va natijalarga ta‘sir qiluvchi omillar muhokama qilindi.

91 ta ta‘lim tizimi, 760 mingdan ortiq o‘quvchi

PISA bu — OECD tomonidan tashkil etiladigan dunyodagi eng yirik xalqaro ta‘lim tadqiqotlaridan biri. U 15 yoshli o‘quvchilarning bilimni shunchaki eslab qolishini emas, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashi, murakkab muammolarni hal etishi, ma‘lumot va dalillarni tahlil qilishi hamda asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini baholaydi.

PISA 2025 tadqiqotida dunyo bo‘yicha 91 ta davlat va ta‘lim tizimidan 760 mingdan ortiq o‘quvchi ishtirok etdi. Ular 15 yoshli qariyb 33 million o‘quvchini ifodalaydi. O‘zbekistondan esa tasodifiylik hamda representativlik tamoyili asosida tanlab olingan 233 ta maktabdan 8652 o‘quvchi tadqiqotda qatnashdi.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik PISA 2025 tadqiqotining asosiy baholash yo‘nalishi bo‘ldi. Shu bilan birga, yangi innovatsion baholash yo‘nalishi “Raqamli dunyoda o‘rganish” doirasida o‘quvchilarning raqamli vositalardan foydalangan holda yangi bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z o‘rganish jarayonini boshqarish hamda hisoblash va algoritmik fikrlash asosida muammolarni hal etish ko‘nikmalari baholandi. PISA 2025 tadqiqotining eng e‘tiborga molik

nafaqat xalqaro reytingni belgilovchi, balki kelgusi ishlarni tahlil qilishda ham asosiy mezondir

natijasi tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha qayd etildi. O‘zbekistonlik o‘quvchilarning o‘rtacha natijasi 438 ballni tashkil etib, 91 ta davlat va ta‘lim tizimi orasida 48-o‘rinni egalladi. 2022-yilda natija 355 ball va 80-o‘rin edi. Demak, ikki baholash oralig‘ida ko‘rsatkich 83 ballga oshgan.

Biroq natijani faqat reyting bilan baholash yetarli emas. OECD mamlakatlarida tabiiy fanlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 482 ball atrofida. Demak, O‘zbekiston uchun erishilgan o‘lishni mustahkamlash bilan birga OECD o‘rtacha ko‘rsatkichiga yaqinlashish vazifasi ham dolzarbligicha qolmoqda.

Bazaviy darajaga yetayotganlar ko‘paydi

PISA natijalarini tushunishda o‘quvchilarning savodxonlik darajalari o‘rtacha balddan ham muhimroq manzarani beradi. Tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha 2-daraja bazaviy mezon hisoblanadi. Bu darajaga erishgan o‘quvchi kundalik hayotda uchraydigan ilmiy hodisalarni tushuntira oladi hamda sodda vaziyatlarda berilgan ma‘lumotlarga tayangan holda xulosaning asosiy yoki asossiz ekanini aniqlay oladi.

2022-yilda O‘zbekiston o‘quvchilarining atigi 18,9 foizi kamida shu darajaga erishgan edi. 2025-yilda esa bu ulush qariyb 65 foizga yetdi. Boshqacha aytganda, bazaviy darajadan past qolayotgan o‘quvchilar ulushi keskin qisqardi. OECD mamlakatlarida kamida 2-darajaga erishganlar ulushi o‘rtacha 74 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston natijalaridagi o‘lishning eng muhim mazmunini ochib beradi: o‘zgarish faqat o‘rtacha baldda emas, bazaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘layotgan o‘quvchilar qatlamining sezilarli kengayishida ham namoyon bo‘lmoqda.

Islohotlarning markazida — o‘qituvchi va baholash sifati

PISA natijalaridagi o‘zgarishni birgina omil bilan izohlash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biroq

“

PISA ma‘lumotlari natijaga faqat maktabdagi dars emas, bolaning oiladagi o‘quv muhiti ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. O‘quvchining uyidagi kitoblar soni ortib borishi bilan tabiiy-ilmiy savodxonlik natijalari ham yuqorilab borishi kuzatiladi.

”

inson qadri uchun



O‘ktamjon OXUNOV,
“Nuroniylar” jamg‘armasi Andijon viloyati bo‘limi raisi, senator

Boshlanishi 1-betda

Ushbu majmualar bunyod etilishi hamda obro‘-e‘tiborli, mehnat faoliyati, oilaviy tuzumlar bilan boshqalarga ibrat bo‘layotgan piri badavlat yurtidoshlarimiz ishtirokida mahallalarda madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgani hisobiga keksalarning jamiyat hayotidagi ishtiroki kengaydi.

Prezidentimiz qayd etganidek, xonadonlarimizning fayzi bo‘lgan otaxon va onaxonlarimizni e‘zozlash, hayotdan rozi qilish, qo‘limizdan kelganicha umrini uzaytirish asrlar davomida eng ulug‘ qadriyatlarimizdan. Bunday tabarruk insonlarga xizmat qilish, munosib turmush sharoitini yaratib berish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish ezgu va savobli ishimizdir.

NURONIYLAR KO‘MAGI BILAN

5000 ga yaqin oila kambag‘allik reyestridan chiqarildi

Oxirgi yillarda qator tarixiy farmon va qarorlar imzolandi. Mazkur hujjatlar keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom va faol hayotga jalb qilish, yoshlar bilan ishlashda ularning hayotiy tajribasidan foydalanishga qaratilgan.

“Bir nuroniy — o‘n yoshga mas‘ul” tamoyilini keng joriy etish, aholi, ayniqsa, keksalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish uchun “Sog‘lom hayot uchun 5000 qadam”, jismoniy faollik va to‘g‘ri ovqatlanish kabi odatlarni targ‘ib qilish, mahalla hayotini yaxshilashga qaratilgan “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy etish, mahalla, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishda nuroniylar maslahati va tajribasiga tayanish ham yangi O‘zbekiston ne‘matidir.

Kexsa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish, ularga e‘tibor va g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, turmush sharoitini yaxshilash, faol va mazmunli hayot kechirishini ta‘minlash, boy hayotiy tajribasidan keng foydalanish maqsadida mamlakatimizning barcha mahallalarida saralangan 15 nuroniydan tarkib topgan “Keksalar maslahati” guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Bunday guruhlar hozir viyolatda yashab kelayotgan 3 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 154 nafar urush orti mehnat faxriysi, 31 nafar 100 yosh va undan oshgan keksa hamda o‘zgalar parvarishiga muhtoj 3201 yolg‘iz keksa toifasidagi nuroniylarning holidan


“

PISA 2025 tadqiqotida dunyo bo‘yicha 91 ta davlat va ta‘lim tizimidan 760 mingdan ortiq o‘quvchi ishtirok etdi. Ular 15 yoshli qariyb 33 million o‘quvchini ifodalaydi. O‘zbekistondan esa tasodifiylik hamda representativlik tamoyili asosida tanlab olingan 233 ta maktabdan 8652 o‘quvchi tadqiqotda qatnashdi.

”



Programme for
International
Student Assessment



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

BIOLOGIYA

MATEMATIKA

FIZIKA

СИФАТЛИ
ТАЪЛИМ

ИНСОН
КАПИТАЛИ

УЧИНЧИ
РЕНЕССАНС

2026-yilda maktabgacha ta‘lim qamrovi 78 foizga yetgan, 2030-yilgacha uni 80 foizga, maktabga tayyorlov guruhlari qamrovini esa 100 foizga yetkazish maqsad qilingan.

2022-2025-yillar davomida maktab ta‘limida amalga oshirilgan tizimli islohotlar ushbu natijalar tahlilida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda maktab ta‘limida o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, darsliklarni yangilash, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini kuchaytirish hamda mezonlarga asoslangan baholash tizimini bosqichma-bosqich kengaytirishga qaratilgan tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” amaliyotlari orqali o‘qituvchilarning zamonaviy metodikalarini

egallashi qo‘llab-quvvatlanmoqda, baholash tizimida esa o‘quvchining faqat bilimni eslab qolishi emas, balki uni tushunishi, qo‘llashi va fikrlash jarayonini aniqlashga qaratilgan yondashuvlar kuchaytirilmoqda. Mazkur o‘zgarishlar PISA yondashuvi bilan hamohang bo‘lib, ta‘lim jarayonini bilimni takrorlashdan ko‘ra, uni real vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarishga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy sharoit natijani qanchalik hal etadi?

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston uchun yana bir muhim jihatni ko‘rsatdi. Ijtimoiy-iqtisodiy holati eng yuqori 25 foizdagi o‘quvchilar bilan eng past 25 foizdagi o‘quvchilar o‘rtasidagi tabiiy-ilmiy savodxonlik farqi qariyb 22 ballni tashkil etgan. OECD mamlakatlarida bu tafovut o‘rtacha 85 ball. Mazkur raqamlar O‘zbekistonda o‘quvchining ijtimoiy-iqtisodiy holati bilan ta‘lim natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik OECD o‘rtachasiga nisbatan zaifroq ekanini ko‘rsatadi. Ta‘limda teng

imkoniyatlarni ta‘minlash nuqtayi nazaridan bu ijobiy ko‘rsatkichdir.

Ushbu siyosat maktabgacha bosqichdan boshlanmoqda. 2026-yilda maktabgacha ta‘lim qamrovi 78 foizga yetgan, 2030-yilgacha uni 80 foizga, maktabga tayyorlov guruhlari qamrovini esa 100 foizga yetkazish maqsad qilingan. 2026-2028-yillarda barcha hududlarda “Yangi avlod” maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Kitob, oiladagi muhit va bolaning maqsadi

PISA ma‘lumotlari natijaga faqat maktabdagi dars emas, bolaning oiladagi o‘quv muhiti ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. O‘quvchining uyidagi kitoblar soni ortib borishi bilan tabiiy-ilmiy savodxonlik natijalari ham yuqorilab borishi kuzatiladi. Buni “kitobning ko‘pligi natijani oshiradi”, degan to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosa emas, oiladagi kitobxonlik va o‘rganish muhiti bilan ta‘lim natijasi o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlik sifatida talqin qilish to‘g‘riroq.

Shuningdek, o‘quvchilarning kelajakdagi ta‘limga oid intilishlari bilan ularning natijalari o‘rtasida ham bog‘liqlik mavjud. Oliy ta‘limni davom ettirishni ko‘zlagan o‘quvchilarning natijalari odatda yuqoriroq. Bu bolaning o‘z oldiga katta ta‘lim maqsadini qo‘yishi, oilaning ta‘limga munosabati va kelajak imkoniyatlarini ko‘ra olishi maktabdagi o‘qishga hamohang omillar ekanini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i rivojlanishi, muhandislik maktablari tashkil etilishi, oliy ta‘limga kirish imkoniyatlari kengayishi va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari maktab o‘quvchisi oldida ta‘limning keyingi bosqichlari uchun kengroq ufq ochmoqda.

“

Xulosa o‘rnida aytish mumkin, PISA tadqiqotining ahamiyati faqat reytingdagi o‘rin bilan cheklanmaydi. Uning asosiy vazifasi ta‘lim tizimiga o‘zining kuchli va zaif bo‘lgan jihatlarini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini berishdir.

”

PISA 2025 tadqiqoti O‘zbekiston uchun bir necha aniq xulosani ko‘rsatmoqda.

Birinchidan, tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha bazaviy darajaga erishayotgan o‘quvchilar qatlami keskin kengayishi katta ijobiy siljilardir.

Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy holati turlicha bo‘lgan o‘quvchilar orasidagi tafovutning nisbatan kichikligi ta‘limdagi teng imkoniyatlar nuqtayi nazaridan muhim.

Uchinchidan, yuqori savodxonlik darajalariga erishgan o‘quvchilar ulushini oshirish va raqamli muhitda murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini kuchaytirish zarur. Shu ma‘noda, PISA 2025 yakuniy nuqta emas, keyingi islohotlar uchun diagnostik nuqtadir. Maktab ta‘limi sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish, baholashni bilimni takrorlashdan ko‘nikmani namoyish etishga yo‘naltirish, tabiiy va aniq fanlarda yuqori darajadagi fikrlashni kuchaytirish hamda raqamli va shu‘riy intellekt savodxonligini ta‘lim mazmuniga chuqur integratsiya qilish oldindagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qoladi.

Prezidentimiz mustaqilligimizning 35 yilligi bayramidagi tarixiy nuqtida ham kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘lishi haqida alohida ta‘kidlab, bu yo‘lda, eng avvalo, bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantiradigan milliy dastur qabul qilinishini belgilab berdi. Barcha maktablar xalqaro baholash dasturlari bilan to‘liq qamrab olinishiga e‘tibor qaratdi. Milliy dastur va unda belgilangan vazifalarning amalga tatbiq etilishi yangi O‘zbekiston ta‘limining Uchinchi Renessans poydevoriga aylanishini ta‘minlashi shubhasiz.

mahallalarda kambag‘allikni qisqartirish, oilalar farovonligini oshirish va ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun faol nuroniylarni “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirishga jalb etish bo‘yicha yangi mexanizm joriy qilindi.

Ayni paytda Andijon viloyatida 879 mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Har bir mahalladan katta hayotiy tajribaga ega, obro‘-e‘tibori 3 nafardan faol nuroniy tanlab olinib, har biri 5 tadan kambag‘al oilaga birkitildi.

Bugun ularning barchasi kambag‘allikni qisqartirishga ko‘maklashish hamda mahallada sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma‘naviy muhitni shakllantirish yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat yuritmoqda. Nuroniyalar kambag‘allikni qisqartirish uchun “mahalla yetiligi” bilan har bir xonadonga kirib, muammolarini o‘rganmoqda. Xususan, xonadonlardagi tomonqarladan samarali foydalanish, yaxshi daromad beradigan ekinlarni ekish bo‘yicha tavsiya va maslahatlarini berib bormoqda. Bundan tashqari, kambag‘al oilalar farzandlarining ehtiyojini o‘rganib, dars tayyorlashi uchun ularga 4574 ta stul, 4426 ta stol, sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun 4547 ta sport kiyimi tarqatildi. Endi esa 1851 ta o‘quv qurollari tarqatish chorasi ko‘rilmogda.

Hozirgi holatga ko‘ra, nuroniylarimiz sa‘y-harakati bilan 12 ming 866 ta oiladan 4176 tasi kambag‘allik reyestridan chiqarildi.

Keksalar mahallalardagi oilalarning aniq muammolarini o‘rganib, ulami hal etishda davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga moddiy va ma‘naviy ko‘mak ko‘rsatish, oila a‘zolarini kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha choralar ko‘rilmogda.

Eng muhimi, nuroniylar bugun nafaqat e‘tibor va g‘amxo‘rlik obyekti, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, yoshlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatayotgan, oilalar va mahallalarda tinchlik-totuvlikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shayotgan faol ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

4

Narxlar asossiz ravishda oshib ketishining oldini olish borasida amaliy qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, davlat zaxirasidan un, shakar, o'simlik yog'i va asosiy turdagi boshqa oziq-ovqat resurslari muntazam ravishda birja savdolariga chiqarilmoqda.

Tahlil

Dunyo bozor munosabatlari tamoyillariga ko'ra, mahsulotlar narxлари davlat tomonidan ma'muriy tarzda belgilanmaydi, balki talab va taklif qonuniyatlari asosida mustaqil shakllanadi. Iqtisodiyotda erkin bozor qonuniyatlari amal qilar ekan, ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarida mavsumiy tebranishlar yoki vaqtinchalik o'zgarishlar kuzatilishi tabiiy. Bular, avvalo, bozordagi talab va taklif, iqlimiy sharoit, tashqi bozor va logistikadagi obyektiv o'zgarishlar bilan bog'liq iqtisodiy jarayon sifatida baholanadi.

Davlatning bu boradagi strategiyasi narxlarini ma'muriy buyruqbozlik bilan sun'iy muzlatib qo'yishdan emas, aksincha, bozor

Bugungi kunda mamlakatimiz bozorlari va savdo majmualarida oziq-ovqat mahsulotlari to'kinligi ta'minlanib, biror turdagi mahsulot

YANGI O'ZBEKISTON

www.yuz.uz

f yuz.uz news

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz_news

kunda xuddi shunday yondashuv go'sht va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ham qo'llanilmoqda.

Hozirgi sharoitda yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanuvchi chorvadorlarga berilayotgan keng ko'lamli imtiyozlar, moliyaviy kreditlar, subsidiyalr hamda foydalanishdan chiqqan yaylov yerlarini yana aylanmaga kiritish borasidagi tizimli choralar mahalliy go'sht narxini barqaror ushlab turishda muhim poydevor bo'lmoqda.

Mamlakatimiz ichki bozorini imkoni boricha arzon va sifatli go'sht mahsulotlari bilan to'ldirish bo'yicha tarixda bo'lmagan miqyosdagi manzilli choralar ko'rilmoqda. Xorijiy hamkorlar bilan keng ko'lamli kelishuvlar doirasida chetdan tayyor go'sht va chorva olib kelinmoqda.

Jumladan, Mo'g'ulistondan yurtimiz iqlim sharoitiga mos, chidamli va hosildor zotli qo'yalar olib kelindi. Mazkur egzu loyihalarga O'zbekiston fermerlari kengashi huzuridagi jamg'arma tomonidan ham 15 milliard so'mdan ortiq resurs yo'naltirildi.

Barqaror narxni davlatning ma'muriy qarorlari emas, avvalo, bozordagi yetarli taklif ta'minlaydi. Shu bois, davlatning asosiy vazifasi narxni majburan ushlab turish emas, balki uning keskin o'sishiga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va bozorda raqobat muhitini mustahkamlashdan iborat. Bugun fermerga yaratilayotgan har bir imtiyoz va qo'llab-quvvatlash chorasi ertaga bozordagi qo'shimcha mahsulotga aylanib, aholi dasturxonini to'kinligini ta'minlashga xizmat qiladi. Import esa bugungi taqchillikni yumshatish bilan birga naslli chorva importi kabi mexanizmlar orqali ertangi ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Shu ma'noda, haqiqiy oziq-ovqat xavfsizligi mahsulotni ma'muriy yo'l bilan arzonlashtirish emas, balki aholi uchun sifatli va raqobatbardosh mahsulotni yetarli miqdorda taklif etish, uni tanlash va xarid qilish imkoniyatini kafolatlashdir.

O'zbekiston agrar sektori va oziq-ovqat bozorida bugungi tarixiy o'zgarishlar shunchaki vaqtinchalik yoki taktik yangilanish emas, balki ertangi strategik barqarorlik va inson qadrlari ta'minlab beruvchi qudratli poydevordir. Iqtisodiyotda erkin bozor qonuniyatlarini qo'llash, ichki imkoniyatlarni kengaytirish hamda import va zaxira mexanizmlarini elastik darajada uyg'unlashtirish natijasida ichki bozorda muvozanatga erishildi.

Yerdan oqilona foydalanish, dalaning o'zida barcha infratuzilmasi va qayta ishlash zanjirlarini shakllantirish, shuningdek, dehqon va tadbirkorlarga yaratib berilgan mislsiz imkoniyatlar xalqimiz dasturxonining doimiy to'kinligini kafolatlamqda. Davlatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek: "Bizning asosiy boyligimiz — yer, suv va mehnatkash xalqimiz. Ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, xalqimiz dasturxonini to'kin, hayotini farovon qilish — eng muhim vazifamizdir".

Yerning saxovati, bozor mexanizmlari qo'llanishi hamda aholi manfaatlarini himoyalashga qaratilgan tizimli siyosiy iroda bir nuqtada birlashib, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda nafaqat barqaror model yaratdi, balki har bir xonadonga fayz-baraka va ertangi kunga mustahkam ishonch olib kirdi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI – FAROVONLIKNING MUSTAHKAM POYDEVORI

To'lg'in SATTOROV, Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi direktori

mexanizmlari elastik ishlashini ta'minlash, ichki imkoniyatlarni kengaytirish hamda zarur zaxira va import vositalari orqali narxlar keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan.

bo'yicha keskin taqchillikka yo'l qo'yilmayapti. Bu barqarorlik zamirida davlat tomonidan har bir mahsulot zanjiri uchun tinimsiz va qat'iy kurash hamda bozorni taqchillikdan himoya qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tizimli ishlar yotibdi.

So'nggi paytlarda go'sht va oziq-ovqat mahsulotlari narxlari barqarorligini ta'minlash borasida ko'rilayotgan choralar buning yaqqol isbotidir.

Narxlar asossiz ravishda oshib ketishining oldini olish borasida amaliy qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, davlat zaxirasidan un, shakar, o'simlik yog'i va asosiy turdagi boshqa oziq-ovqat resurslari muntazam ravishda birja savdolariga chiqarilmoqda.

Shuningdek, dehqonlar tomonidan aholi gavjum hududlar va bozorlarda go'sht, tuxum, sabzavot mahsulotlarini o'z narxlarida, ortiqcha vositachilarsiz sotish maxsus rastalari tashkil etilmoqda. Qish va bahor mavsumi uchun mahalliy hokimliklar huzurida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining barqaror zaxiralari

oshmagan miqdorda) qoplab berilishi yo'lga qo'yildi.

Chorvachilik va qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarorlar doirasida xalqaro va mahalliy moliya institutlari, tijorat banklari mablag'lari imtiyozli stavkalarda ajratilmoqda.

Tirik qoramol, qo'y va echki importida hisoblangan QQSni 180 kungacha kechiktirib to'lash imkoniyati tadbirkorning aylanma mablag'ini saqlab qolib, bozorga arzon chorva kirib kelishini rag'batlantirmoqda.

Olis hududlardan mahsulotlarni yetkazib berish hamda import qiluvchi tadbirkorlarning

transport xarajatlarining bir qismi qoplanmoqda.

Raqobat qo'mitasi orqali asossiz sun'iy ravishda narx oshirish, til birkirish holatlarining qat'i yo'ldi olinaypti.

Prezidentimizning 2025-yil 31-oktabrdagi "Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qishloq xo'jaligi va fermerlik harakati tarixida mislsiz burilish yasab, dalalarda infratuzilmasi barpo etish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. Mazkur hujjatga muvofiq, joriy yildan 20 sotixgacha bo'lgan maydonlarda va dala

Dolzarb mavzu

Biz ko'pincha ulkan eksport hajmlari, milliardlab dollarlik global shartnomalar yoki sanoat gigantlari haqida gapirishni xush ko'ramiz. Vaholanki, har qanday mahobatli loyihaning zamirida, uning ko'zga ko'rinmas eng muhim poydevorida bir insonning shijoati, bir oilaning barqaror daromadi va qarovsiz yotgan yerga jon bag'ishlagan oddiy mahalliy mehnat zanjiri yotadi. Katta daryolar kichik buloqlardan to'yinganidek, milliy iqtisodiyotning qudrati aynan ana shu soddad, hayotiy tashabbuslarning bir nuqtaga birlashishidan kuch oladi.

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan an'anaviy ochiq muloqotida aynan hududlarning biznes imkoniyatlarini kengaytirish va mavjud bo'sh resurslardan unumli foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan, yangi tashabbuslar ilgari surilgani bejiz emas. Ular zamirida teran hayotiy mantiq mujassam. Yillar davomida kimsasiz yotgan yer maydonlari yoki davlat aktivlari faqat tadbirkor qo'lga tegib, real loyihaga aylangandagina qiymat kasb etadi, yangi ish o'rinlari ochadi. Shu bois, davlat aktivlarini xarid qilishda bo'nak miqdorining 30 foizdan 15 foizga tushirilishi shunchaki raqamlar o'zgarishi emas. Tashabbus biznesning eng og'riqli nuqtasi bo'lgan boshlang'ich moliyaviy yukini teng yarmiga yengillashtiradigan kuchli iqtisodiy dastaklari. Bunday oqilona yengillik kichik biznes vakillari uchun yangi istiqbolarni qo'rqmasdan boshlashga, tavakkal qilishga turki beradi. Natijada sarmoya yetishmovchiligi sababli qog'ozlarda band bo'lib yotgan jonli g'oyalr endilikda amaliy voqeilikka aylanib, hududlar taraqqiyotiga xizmat qila boshlaydi.

Sarmoya oqimidagi dastlabki olti oylik muddat ichida majburiyatlarini to'liq bajargan fidoyi tadbirkorlarga yigirma besh foizli chegirma taqdim etilishi iqtisodiy rag'batdan ko'ra yanaroq ma'noga ega. Mazkur qadam biznes tafakkurida mablag'ni tezkor aylantirish madaniyatini shakllantirib, davlat byudjetining qon tomlarida moliyaviy izchillik barqarorligini ta'minlaydi. Jami mablag'ning yarmini to'lagan investor uchun qolgan qismini yetti yil davomida, hech qanday foiz va ustamalarsiz bo'lib to'lash huquqi berilishi uzoq muddatli investitsion rejalashtirishning mustahkam zaminidir. Bu imkoniyat mahalliy biznes uchun inqirozlar bo'ronida o'z oyog'iga mustahkam turib olish, mahsulot sifatini yuksaltirish va raqobatli bozorda o'z o'rmini topish uchun muhim. Oqilona yondashuv tadbirkorni sudxo'rlik zanjirlari va og'ir bosh

foizlari girdobidan qutqaradi. Natijada investor bor mablag'ini zamonaviy texnologiya xarid qilishga, yuksak malakali mutaxassislarning aqliy salohiyatini jalb etishga yo'naltiradi va shu tariqa kechagina chang bosib, kimsasiz yotgan maskanlar hududlarning chinakam yuragiga, hayot va daromad manbaiga aylanadi.

Resurslarni harakatga keltirishdagi mazkur iqtisodiy yengilliklar, o'z navbatida, yer ajratish tizimidagi uzoq yillik byurokratik to'siqlarni bartaraf etish bilan izchil bog'lanmoqda. Kundalik hayotimizda ko'plab tadbirkorlar auksionda yutib ham oylab, yillab ish boshlay olmay yurganiga, idoralararo sargardonlikka mahkum bo'lganiga guvohmiz. Ilgari yerni sotib olgan investor qurilishni boshlash maqsadida hujjat yig'ish, loyihani tasdiqlatish, ekologiya, yong'in xavfsizligi va sanitariya idoralari eshigini qoqishga olti oydan bir yilgacha bo'lgan oltinga teng vaqtini boy berayotgan edi. Ko'rsatilgan muddat davomida biznesning kapitali muzlab turar, rejalashtirilgan ishlab chiqarish kechikardi,

moliyaviy poydevorni taqdim etadi. Sarmoyador tayyor binoni oladi, unga soliq to'lamaydi va bor kuch-iqtidorini faqat mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga qaratadi. Natijada hududlarda yangi kimsasiz yotgan maskanlar chiroqlari qayta yonib, ularda hayot jonlanadi, yangi ish o'rinlari ochiladi. Qishloqlardagi ishsiz yoshlar va ayollar o'z uylari yaqinida, oilasi bag'rida doimiy daromad manbaiga ega bo'ladi. Bank tizimi esa muammoli, muzlagan aktivlarini jonli loyihalarga aylantirish orqali uzoq yillik zarar girdobidan qutuladi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va tashqi bozorga, ya'ni importga qaramlikni kamaytirish maqsadida mahalliyashtirish tizimi yangi hayotiy mazmun kasb etmoqda. Hozirgi kunda birinchi galda mahalliyashtirish zarur bo'lgan ellikta eng talabgir mahsulot ro'yxati shakllantirilgani ulkan strategik qadamdir. Tanlangan mahsulotlar jadvali davlatning mahalliy ishlab chiqaruvchilarga bergan aniq yo'nalishi, kafolatlangan istiqbolli buyurtmasi hisoblanadi. Chetdan olib kelinayotgan oddiy butlovchi qismlar, qurilish materiallari yoki kimyoviy vositalarni o'z tuprog'imizda ishlab chiqarish fursati yetdi. Mazkur tovarlarni yurtimizda chiqarish maqsadida Navoiy, Jizzax, Namangan, Urgut va Hazorasp kabi strategik ahamiyatga

ega maxsus iqtisodiy zonalar tarkibida "Bond sanoat zonalarini" tashkil etilmoqda. Belgilangan hududlarda joylashadigan sanoatchilar xomashyo va butlovchi qismlarni olib kirish bo'xona hamda soliq to'lovlaridan o'tir ozod etiladi. Bu yengilliklar tayyor mahsulot tannaxsi sezilarli darajada arzonlashishini ta'minlaydi.

Mahsulot tannaxsi pasayishi mahalliy tovarlarning chet el mahsulotlari bilan bemalol raqobatlasha olishiga zamin yaratadi. Ishlab chiqarish jarayonida mahalliyashtirish darajasi o'tiz-giqir foizdan oshgan taqdirda korxonaga ichki bozorga chiqishda ham alohida imtiyozlar taqdim etiladi. Ko'rsatilgan chora chetdan kelayotgan tayyor tovarlar oqimi qarshisida milliy mahsulot ustunligini ta'minlashga qaratilgan. Davlat tadbirkorga tayyor binolarni zarur infratuzilmasi bilan taqdim etish maqsadida ellik million dollar ajratayotgani biznesning boshlang'ich qurilish xarajatlarini butunlay yo'qqa chiqaradi. Maxsus zonalar shunchaki bo'sh yer maydoni bo'lib qolmay, zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda muhandislik xizmatlarini mujassam etgan yagona servis majmuasiga aylanadi. Sarmoyador mazkur maskanga kelib, tayyor binoga uskunasini o'rnatadi, mahsulotini shu yerning o'zida sinovdan o'tkazadi va xalqaro standartlar asosida sertifikat oladi. Mukammal

tartib ishlab chiqarish zanjirining tezkor va sifatli ishlashini kafolatlaydi.

Biznesni real rivojlanish yo'lida faqatgina uzoq muddatli imtiyozlar berish kifoya qilmay, korxonalarning kundalik infratuzilmasi va kommunal og'riqlarni mahalliy hal qilish talab etiladi. Shu paytgacha ko'plab tadbirkorlarni qiyina kelgan va ularning hayotiy aylanma mablag'larini cheklab qo'ygan eng og'ir masala elektr energiyasi va gaz uchun yuz foizli oldindan to'lov majburiyati edi. Yangi tartibga ko'ra, ASKUE va ASKUG avtomatizatsiyalashtirilgan nazorat tizimlariga ulangan hamda to'lov intizomiga qat'iy amal qiluvchi korxonalar uchun mazkur bo'nak miqdori o'n besh foizgacha tushirilmoqda. Ilgari bir oyda yuz million so'mlik elektr ishlatadigan kichik to'qimachilik sexi hali mahsulot ishlab chiqarmasdan va uni bozorda sotmasdan turib o'yning boshidayoq naqd yuz million so'mni energetika idorasiga o'tkazib qo'yishga majbur edi. Mazkur holat korxonaning moliyaviy erkinligini bo'g'ib qo'yardi, xomashyo olishga pul qolmasdi. Endilikda sanoatchi bor-yo'g'i o'n besh million so'm bo'nak to'laydi, qolgan sakson besh million so'm pul esa korxonaning o'z ixtiyorida bo'ladi. Oqilona qadam korxonalar tasarrufida naqd mablag'larni saqlab qolish va ishlab chiqarishni uzilishlarsiz davom ettirish uchun juda zarur moliyaviy nafas yo'lini ochadi. Tadbirkor tejalgan mablag' hisobiga yangi ishchilarni ishga qabul qilishi yoki mehnat ahlining ish haqini oshirishi mumkin bo'ladi.

Muxtasar aytganda, ochiq muloqotda belgilangan va hayotiy tahillarga asoslangan strategik vazifalar hududlar iqtisodiyotini qog'ozdagi hisobotlardan real hayotiy natijalarga o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'sh turgan yerlar, bank balanslaridagi aktivlar, energetikadagi yengilliklar va qurilish sohasidagi yangi qoidalar bir nuqtada birlashib, mahalliy biznes rivojiga xizmat qiladi. Biznes va davlat o'rnatadagi samarali sheriklik munosabatlari yurtimizning har bir go'shasida iqtisodiy farovonlikni ta'minlashning eng ishonchli kafolati bo'lib qolaveradi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



TA'LIM-TARBIYA TRANSFORMATSIYASI

Nimalarga e'tibor qaratmoq lozim?

Demak, bugun oldimizda bu avlodga xos yangicha ta'lim-tarbiya konsepsiyalarini ishlab chiqish vazifasi turibdi. Biroq o'qitish tizimini transformatsiya qilishdan oldin yangi avlodning faqat zaifliklarini emas, balki texnologiya davrida shakllangan o'ziga xos kuchli jihatlari ham inobatga olish zarur.

Avvalo, axborotni qabul qilish tezligi. Ular kerakli ma'lumotni soniyalar ichida izlab topish, saralash va raqamli vositalar yordamida qayta ishlash bo'yicha tug'ma ko'nikmaga ega.

va muammolarga tezkor, texnologik yechimlar topish qobiliyatini shakllantirgan.

Global fikrlash va faollik. Voqealarga faqat muayyan mintqa chegarasida emas, balki butun insoniyat nigohi orqali qarash tafakkuri ustun. Raqamli muhitda o'sgan zet va alfa avlod dunyo aholisining 47 foizini tashkil etadi. 2030-yildan ular davlat boshqaruviga kela boshlaydi. "Financial Times" nashrining yozishicha, bu avlod o'z hukumatining kamchiliklari va

va universitetlarning bu vazifasi o'z qiymatini yo'qotayotir. Endi ta'lim tizimi yoshlarni virtual qafasdan olib chiqib, jamiyatga, jonli insoniy munosabatlar va hayotiy inqirozlarga tayyorlashi shart. Buning uchun zamonaviy ta'limda, bizningcha, qator asosiy masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchisi — quruq ko'nikma (faqat ixtisoslik bo'yicha olingan bilimlar) bilan birga insoniy ko'nikmalar (muloqotga kirishish, jamoada



Ko'p vazifa bajara olish xususiyati. Bir vaqtning o'zida bir nechta raqamli vazifani (musiga tinglash, matn yozish, qidiruv) bajarishga qodir bo'ladi.

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi yuqoriligi. An'anaviy ta'lim tizimidan tashqari onlayn kurslar va raqamli platformalar orqali o'zlari qiziqqan sohani mustaqil o'zlashtira olish xususiyati shakllangan.


Innovatsion yechimlarga ochiqlik. Raqamli muhitlarda bir qolipdagi fikrlashdan qochish

dunyodagi adolatsizliklar haqida internet orqali cheksiz ma'lumotga ega. Bularning barchasi yoshlarni jamiyatga tayyorlashning yangi strategiyalarini, raqamli avlod uchun ta'lim-tarbiyani tubdan o'zgartirish ehtiyoji yuzaga keltirgan darak.

An'anaviy ta'lim tizimi, asosan, ma'lumot berish vazifasini bajarib kelgan. Ammo raqamli olam istalgan ma'lumotni soniyalarda taqdim eta oladigan bugungi davrda maktab

ishlay olish, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, ishlarni rejalashtirish, his-tuyg'ularini boshqarish) o'tish. Sun'iy intellekt hech qachon empatiya (birovning dardini his qilish), emosional intellekt va jonli muzokara olib borish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Ta'lim dasturlariga o'quvchi va talabalarining jamiyatda til topishish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, jamoada ishlash va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi maxsus fanlar kiritilishi shart. Darslar ma'ruza shaklida emas, balki jonli muloqot, munozara va aq' chaxxlovchi o'yinlar shaklida tashkil etilishi kerak.

Ikkinchisi — amaliy va maishiy savodxonlikni tiklash. Maktab yoshidagi bolalarning kitob varaqlashni bilmasligi yoki oddiy maishiy ehtiyojlarini mustaqil bajara olmasligi ta'limning hayotdan uzilib borayotganini ko'rsatadi. Xalqaro STEAM tizimini faqat robototexnika bilan emas, balki jonli tabiat, sog'lom turmush tarzi,



ILMIY ISHLANMADAN QO'SHILGAN QIYMATGACHA

Endi fan sohasidagi yutuqlar foyda keltirmoqda

Nuqtayi nazar

Yaqin-yaqingacha mamlakatimizda innovatsion rivojlanishga mas'ul yagona muvofiqlashtiruvchi organ yo'q, ilmiy muassasalar faoliyati tarqoq, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqa zaif edi. Xususan, tadqiqotni boshlash va hisobotini yakunlashning tartibi bor edi-yu, uni tajriba namunasi bilan talab yuqori bo'lgan mahsulot darajasiga olib chiqadigan tizim shakllanmagan. Shu bois, ilmiy ishlarni taqdiri ko'pincha uni yaratgan olimning shaxsiy matonati va imkoniyatiga bog'liq bo'lib qoldi.

2017-yildan e'tiboran ilm-fan bilan bozor iqtisodiyotining mustahkam integratsiyasini ta'minlaydigan tizim yaratish va ilmiy ishlarni tijoriylashtirishga to'siq bo'lib turgan qator muammolarni bartaraf etishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar boshlandi. Jumladan, mazkur yo'nalishda yagona muvofiqlashtiruvchi organing yo'qligi, ilmiy-tadqiqot muassasalarining tarqoq ishlashotgani, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta'minlanmagani ochiq tan olindi.

Shuningdek, 2018-yildan ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha yagona davlat siyosati shakllana boshladi. Keyingi qadamlar bir-birini izchil to'ldirdi: ilmiy natijalarni tijoriylashtirish mexanizmlari yaratildi. 2019-yilda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, 2020-yilda esa "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Shu tariqa ilmiy g'oyani qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish, ekspertizadan o'tkazish, ishlab chiqarishga joriy etish va undan manfaat ko'rishning mustahkam huquqiy poydevori paydo bo'ldi.

Natija raqamlarda ham o'z aksini topdi. Xususan, 2022-yilning o'zida umumiy qiymati 22 milliard so'mlik 255 ta ilmiy ishlarni tijoriylashtirildi. Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar bilan tarmoq korxonalari o'rtasida 22,7 milliard so'mlik 79 ta shartnoma imzolandi. Mazkur raqamlar ilm-fan faqat byudjetdan mablag' oladigan soha emas, to'g'ri mexanizm yo'lga



Rustam ERGASHEV,
Innovatsion rivojlanish agentligi
boshqarma boshlig'i

qo'yilsa, daromad va qo'shilgan qiymat yaratadigan keng ekanining dalili edi.

Biroq erishilgan natijalar bilan cheklanib qolish mumkin emasdi.

Ilmiy ishlarni asosida barqaror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, bozorni muntazam mahsulot bilan ta'minlash uchun oliy ta'lim va ilmiy tashkilotning o'zi korxonaga muassis bo'la olishi, investorni teng huquqli sherik sifatida jalb etishi, ayni vaqtda foydani yana texnologiyaga yo'naltirishi va innovatsion

biznesning moliyaviy xatar yuqori dastlabki davrida huquqiy jihatdan himoyaga ega bo'lishi zarur edi.

Prezidentimizning 2022-yil 6-iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mamlakatimizda "spin-off" korxonalarini tashkil etishga dastlabki yo'l ochildi. Ammo innovatsion rivojlanish sohasida o'rtirilgan tajriba oliy ta'lim va ilmiy tashkilot muassis bo'lgan yuqori xatarli innovatsion korxonani oddiy davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatidan ajratib turuvchi maxsus huquqiy tizim, investor kiritish mexanizmi, foydani qayta investitsiya qilish imkoniyati, bo'sh infratuzilmadan foydalanish va dastlabki davrda korxonani saqlab qolish kafolatlari yetarli emasligini ko'rsatdi.

Natijada tashkil etilgan "spin-off" korxonalarining 60 foizi tugatildi. Bu holat yaxshi tashabbusni boshlashning o'zi yetarli emasligini, uning barqaror ishlashi uchun mustahkam huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish zarurligini ko'rsatgan achchiq, lekin foydali tajriba edi. Ilm-fan va innovatsiyalar rivojining navbatdagi bosqichi aynan shu ehtiyojdan tug'ildi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 4-apreldagi "Mamlakatda yangi ishlarni asosida ishlab chiqarishni tashkil etish tizimini yori qilish hamda ilm-fanni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ana shu bo'shliqni to'ldirdi. Farmon ilmiy natijaning bozor iqtisodiyotiga kirib borish yo'lidagi ortiqcha to'siqlarni bartaraf etdi. Ilmiy ko'lamdor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun investitsiyaviy jozibadorlik muhiti yaratildi, "spin-off" korxonalarini dastlabki yillarda majburiy tugatilishdan himoya qildi va ularni soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirdi.

Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar muassisligida patentlangan ishlarni asosida tashkil qilingan korxonalarga keng ko'lamli soliq imtiyozlari tatbiq etildi. Patentsiz ilmiy tadqiqot natijalari



asosida faoliyat yuritayotgan "spin-off" korxonalariga esa 2029-yil 1-mayga qadar foyda solig'ini belgilangan stavkadan 50 foiz kamaytirilgan miqdorda to'lashi belgilandi. Eng muhimi, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarga o'z bilimini mahsulotga, mahsulotni esa barqaror daromad manbaiga aylantirish uchun barcha sharoit yaratildi.

Farmonda to'rtta aniq maqsad belgilangan: oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, texnologiyalar transferining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, ularning muassisligida ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish hamda eng muhimi, yangi ishlarni moliyaviy xatarini olinadigan daromadni oshirish.

Shu birgina yondashuvning o'zi oliy ta'lim va ilm-fan tizimidagi qarashlarni tub ma'noda o'zgartiradi. Ilmiy natijaning jamiyat hayotiga kirib borishi, ishlab chiqarish xarajatini kamaytirishi, import o'rini bosishi, yangi bozor

ochishi yoki odamlar muammosini hal qilishi ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. "Spin-off" korxonasi aynan shu natijaga olib boradigan ko'prik vazifasini bajaradi. U oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilot muassisligida yangi ishlarni asosida xo'jalik jamiyati shaklida tashkil etiladi. Sodda qilib aytganda, g'oya laboratoriyadan chiqib, o'z jamoasi, hisob raqami, investitsiya rejasi, ishlab chiqarish jarayoni va xaridori bo'lgan mustaqil iqtisodiy faoliyatga aylanadi.

Yangi tizimning kuchli jihati unda umumiy da'vatlar emas, amaliy, ishlaydigan mexanizmlarning belgilanidir. Bunda olimdan katta sarmoya topish emas, istiqbolli ishlarni, asoslangan taklif va kuchli jamoa talab qilinadi. Sarmoya esa manfaatdor sheriklar bilan birga shakllantiriladi. Chunki "spin-off" korxonasi ustav fondining kamida 25 foiz muassis bo'lgan oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Qolgan qismiga venchur fondlar, mahalliy va xorijlik investorlar

moliyaviy savodxonlik va ijtimoiy mas'uliyat bilan boyitish zarur. Bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqish, jamoaviy dam olishlar tashkil etish, ularni mehnatga va jismoniy harakatga o'rgatish orqali "raqamli detoksikatsiya" (internetdan uzilish) amaliyotini joriy etish lozim.

Uchinchisi — tanqidiy tafakkurni shakllantirish va mediasavodxonlikni shakllantirish. Zamonaviy yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar berayotgan tayyor ma'lumotlarni hech qanday shubhasiz haqiqat deb qabul qilayotganlar ham ko'p. Ta'lim tizimi bolalarga axborotni saralash, yolg'on xabarlarini ajratish, manipulyatsiyalarga uchmaslik va algoritmlar tuzog'iga tushmaslikni o'rgatishi zarur. Yoshlar algoritmlar ularning ongini boshqarishiga emas, balki o'zlari algoritmlarni boshqara oladigan darajada intellektual immunitetga ega bo'lishi kerak.

To'rtinchisi — bilimlarni raqamli dunyo mezonlariga moslashtirish. Yangi avlod uzun va zerikarli dasturlarni hazm qila olmaydi. Shu sababli ta'lim kontentini tizimli, lekin qisqa, lo'nda va vizual jihatdan boyitilgan mikro modullarga bo'lish kerak. O'qitish makonini ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga ham ko'chirish, ta'lim mazmunidagi targ'ibotni ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar tushunadigan uslubda yetkazish ham hayotiy zarurarga aylanmoqda.

Beshinchisi — "ustoz-shogird" tizimida akademik rasmiylikdan voz kechish. Oliy va o'rta maxsus ta'limda professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi byurokratik to'siqlarni yo'qotish lozim. Har bir professorning o'z yo'nalishida ilmiy-ijodiy ustaxonasi (kovorking markazlari) yaratilishi, u yerda nafaqat rasmiy fan, balki oddiy hayotiy qadriyatlar, "choyxona suhbatlari" formatidagi samimiy jonli muloqot yo'lga qo'yilishi shart. Bu yoshlardagi ijtimoiy yolg'izlik va raqamli autizm sindromini davolovchi eng samarali tibbiy-ijtimoiy terapiya bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ta'lim tizimida "Mediasavodxonlik va raqamli gigiyena" fani bo'yicha bilimlarni berish va ota-onalar uchun "Bolalarda raqamli detoksikatsiya (internetdan uzilish) tashkil etish" bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va qo'llanmalar ishlab chiqish zarurati ham mavjud.

Tarixda birinchi marta yangi avlod jismoniy ochlik, urushlar yoki moddiy yetishmovchilikdan emas, balki kattalar e'tiborsizligidan, to'qlikdan, cheksiz ma'lumotlar oqimidan va virtual qulayliklardan "kasallanmoqda". Jonli muloqotdan ko'ra sun'iy intellekt botlarini afzal ko'radigan avlod yaqin kelajakda global siyosiy, iqtisodiy va oilaviy institutlarning boshqaruvini qo'lga oladi. Avstraliya va Turkiya kabi davlatlarning 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga ijtimoiy tarmoqlarni qonun bilan taqiqlashi bejiz emas. Bu insoniyatning o'z kelajigini, o'z ongini raqamli quillikdan saqlab qolish uchun boshlagan mudofaa jangidir.

Agar biz bugun ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirmasak, bolalarimizni raqamli olamdagi sun'iy ong ixtiyoriga tashlab qo'ysak, ertaga nafaqat milliy qadriyatlarini, balki umuminsoniylik fenomenini ham butunlay yo'qotamiz. Yechim esa texnologiyalardan voz kechishda emas, aksincha, texnologiya ichida ham inson bo'lib qolishni, mehr-oqibatni va jonli muloqotni ta'lim hamda oilaning bosh mezoniga aylantirishda.

hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar jalb etiladi.

Korxonani ro'yxatdan o'tkazish va davlat ulushini o'zgartirishda ilgari jarayonni cho'zishi mumkin bo'lgan ayrim kelishuv rasmiyatchiliklari bekor qilindi. Investor bilan tuziladigan bitimlar uchun ham alohida vakolatli davlat organi xulosasi talab etilmaydi. Muassislarga bo'sh turgan bino va inshootlarini investitsiya davrida "spin-off" korxonasiiga tekni foydalanishga berish, zarur holda byudjetdan tashqari mablag' hisobidan qaytarish sharti bilan moliyaviy qo'llab-quvvatlash huquqi berildi. Bu tartib yangi korxonaning dastlabki yillarda oyoqqa turishi va ishlab chiqarishini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihati bor. "Spin-off" ning oddiy davlat korxonasidan farqi mehnat jamoasida muassisning professor-o'qituvchisi yoki ilmiy xodimi, talabalari va ilmiy tadqiqotchilari ishtiroki etishi shart. Ilmiy g'oyani eng yaxshi bilgan odam ishlab chiqarishdan chetda qolsa, mahsulot asl mazmunini yo'qotishi mumkin. Aksincha, olim texnologik qarorga, tadbirkor bozor va boshqaruvga, talaba esa yangi bilim va harakatchanlikka hissa qo'shsa, barqaror va bir-birini to'ldiruvchi jamoa shakllanadi.

Bundan tashqari, farmonga muvofiq, olimlar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajariladigan tajriba-sinov ishlari uchun xarajatlarining bir qismi qoplab berilishi bo'yicha alohida band kiritildi. Mazkur moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi ilmiy tadqiqot bosqichidan o'tgan ishlarni moliyaviy ishlab chiqarishga joriy etish va bozorda sotishga qadar bo'lgan mablag' bilan bog'liq muammolarga yechim bo'ldi.

Har bir ilmiy ishlarni ham darhol biznesga aylantirib ketavermaydi. Bozorda talab bo'lmagan ishlarni atrofida shunchaki nomiga korxona tuzish ham olimni, ham tashkilotni kutilgan natijadan uzoqlashtiradi. Avvalo, ilmiy ishlarni bozorda talab mavjud bo'lishi, tarmoq va soha muammolariga yechim bo'la olishi, qo'shilgan qiymat yaratishi, texnologik tayyorlik darajasi, tanxarx, raqobatbardoshligi va intellektual mulkka doir huquqlari aniq baholalanishi shart.

Yangi tizim orqali har bir hududning o'ziga xos ehtiyojidan kelib chiqib tadqiqotlar amalga oshiriladi. Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar hududlar, soha va tarmoqlardagi muammolarni sanoat korxonalari bilan hamkorlikda ishlash, "spin-off"lar hududiy iqtisodiyotning yangi o'sish nuqtasiga aylanadi.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
maxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi,